

TO'G'RIDAN-TO'G'RI XUSUSIY CHET EL INVESTITSIYALARI ISHTIROKIDAGI YURIDIK SHAXSLARGA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Sodiqov Axrorbek**

FarDU "Huquqshunoslik" fakulteti

"Maxsus huquqiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20035422>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan zamonaviy iqtisodiy islohotlar sharoitida soliq tizimining rivojlanishi tahlil qilingan. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarğa soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari, ularga berilayotgan soliq imtiyozlari hamda ularni qo'llash shartlari o'rganilgan.

Shuningdek, soliq tizimini raqamlashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va investitsiya muhitini yaxshilash masalalari ilmiy jihatdan asoslangan hamda amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: oliq tizimi, soliq imtiyozlari, xorijiy investitsiyalar, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, raqamlashtirish, investitsiya muhiti, soliq kodeksi, iqtisodiy islohotlar.

Аннотация. В данной статье анализируется развитие налоговой системы Республики Узбекистан в условиях современных экономических реформ. Особое внимание уделено особенностям налогообложения юридических лиц с участием прямых иностранных инвестиций, предоставляемым налоговым льготам и условиям их применения. Также рассматриваются вопросы цифровизации налоговой системы, совершенствования налогового администрирования и улучшения инвестиционного климата, предлагаются практические рекомендации.

Ключевые слова: налоговая система, налоговые льготы, иностранные инвестиции, налоговая политика, налоговое администрирование, цифровизация, инвестиционный климат, налоговый кодекс, экономические реформы.

Abstract. This article analyzes the development of the tax system in the Republic of Uzbekistan in the context of modern economic reforms. Special attention is given to the specific features of taxation of legal entities with direct foreign investment, tax incentives provided to them, and the conditions for their application. The study also addresses issues of digitalization of the tax system, improvement of tax administration, and enhancement of the investment climate, along with practical recommendations.

Key concepts: tax system, tax incentives, foreign investment, tax policy, tax administration, digitalization, investment climate, tax code, economic reforms.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami iqtisodiy islohotlar doirasida soliq tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishi, soliq turlarining qisqartirilishi, soliq yukining optimallashtirilishi hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay soliq muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyotida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi.

Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish, investorlar uchun soliq imtiyozlari joriy etilishi hamda iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan siyosat soliq munosabatlarining mazmuni va ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun belgilangan soliq imtiyozlari, ularni qo'llash shartlari va huquqiy mexanizmlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, soliq tizimini raqamlashtirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va shaffofligini oshirishga qaratilgan islohotlar davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bunday sharoitda soliqlarning huquqiy va iqtisodiy mohiyatini chuqur tahlil qilish, ularning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish hamda amaldagi soliq siyosatini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 471-moddasida to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish shartlari bilan bog'liq normalar o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalarini jalb etgan holda tashkil etilgan va qonunchilikda tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari deganda chet davlatning fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining kafolatini taqdim etmasdan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushuniladi.

Yuqorida aytib o'tilgan yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan muddatga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari hajmiga qarab, yer solig'ini va mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etish tarzidagi soliq imtiyozlari beriladi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliq imtiyozlardan foydalanishga haqli.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlari quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda qo'llaniladi:

- 1) yuridik shaxslar qonun hujjatlarida belgilanadigan hududlarga joylashtirilganda;
- 2) chet ellik investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda;
- 3) yuridik shaxslarning ustav fondida (ustav kapitalida) chet ellik ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foiz, aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa kamida 15 foiz bo'lganda;
- 4) chet el investitsiyalari erkin ayirboshlanadigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda;
- 5) soliq imtiyozlari berilganligi natijasida ularning qo'llanilishi muddati mobaynida olingan daromadlarning kamida 50 foizi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida reinvestitsiyaga yo'naltirilganda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni¹ bilan "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari RO'YXATI" ham belgilab berildi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 26-avgustda 2822-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligining 2016-yil 9-avgustdagi 61, 2016-24 va 121-son qarori bilan tasdiqlangan "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi NIZOM² asosida amalga oshiriladi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan korxonalar uchun soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llash tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrda PQ-2454-son "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq xorijiy investorning ulushi ustav kapitalining 15 foizidan 33 foizigacha miqdorni tashkil etadigan aksiyadorlik jamiyatlariga ham tatbiq etiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchi korxonalar, shu jumladan aksiyadorlik jamiyatlari quyidagilarni to'lashdan ozod etiladi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini;
- mol-mulk solig'ini;
- yagona soliq to'lovini.

Bundan ko'rinadiki, iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashgan korxonalariga hisobot yili yakuniga ko'ra ushbu mahsulot ishlab chiqarishdan (xizmatlar ko'rsatishdan) tushumning ulushi realizatsiyaning umumiy hajmida 60 foizdan kam bo'lmagan korxonalar kiradi.

Soliq imtiyozlari:

a) to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarning hajmi quyidagilarga teng (ekvivalent) bo'lganda taqdim etiladi:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha va 3 million AQSH dollari bo'lganda - 3 yil muddatga;
- 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha va 10 million AQSH dollari bo'lganda - 5 yil muddatga;
- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga;

b) quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

- korxonalarini, respublikaning barcha shaharlari va qishloq aholi punktlarida joylashtirish, bundan Toshkent shahri va Toshkent viloyati mustasno.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/555778>.

² O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 26-avgustda 2822-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligining 2016-yil 9-avgustdagi 61, 2016-24 va 121-son qarori bilan tasdiqlangan "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi NIZOM. <https://buxgalter.uz/doc?id=472897>.

Bunday hududiy cheklov turizm sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishga tatbiq etilmaydi;

- xorijiy investorlar tomonidan xususiy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

- korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foizni, aksiyadorlik jamiyatlarida esa kamida 15 foizni tashkil etishi lozim;

- xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo'yish;

- mazkur imtiyozlarning qo'llanilishi muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadning kamida 50 foizini korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirish.

Soliq imtiyozlarini olgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat o'tganidan keyin bir yil o'tmasidan oldin faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o'z mamlakatiga o'tkazish va kapitalini xorijga olib chiqib ketish faqat berilgan soliq imtiyozlari summalarining o'rnini budjetga qoplanganidan keyin amalga oshiriladi.

Mazkur shartlarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda, soliq imtiyozlarini olgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxs belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan davr uchun soliqlar penyalar qo'llanilgan holda, umumbelgilangan tartibda to'lanadi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra foydali qazilmalarni qazib olish uchun maxsus renta solig'ini to'lovchi bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq hisobini soliq solish maqsadida hisoblash usuli bo'yicha AQSH dollarida yuritishga haqli ekanligi, metallarni va uglevodorod xom ashyosini qazib olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soliq bazasini AQSH dollarida aniqlash huquqiga ega ekanligi ham e'tirof etilgan.

Soliqlar davlat moliyaviy tizimining asosiy elementi sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiy islohotlar sharoitida soliq tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchidan, soliq tizimining shaffofligi va samaradorligini oshirish maqsadida soliq ma'murchiligini to'liq raqamlashtirish va yagona elektron platforma orqali soliq hisobini yuritishni keng joriy etish zarur. Bu soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratish bilan birga, soliq tushumlarini oshirish va "yashirin iqtisodiyot" ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari tizimini yanada takomillashtirish, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun soliq yengilliklarini iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish va ularning samaradorligini baholash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, soliq tizimini zamonaviy iqtisodiy talablar asosida rivojlantirish, uning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash mamlakat iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi PF-3594-son “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/555778>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 26-avgustda 2822-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Iqtisodiyot vazirligining 2016-yil 9-avgustdagi 61, 2016-24 va 121-son qarori bilan tasdiqlangan “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi NIZOM. <https://buxgalter.uz/doc?id=472897>.
4. Soliq huquqi. Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 680 bet.